



Oliy ta'lim muassasalarining nofilologik yo'nalishlari talabalariga ingliz tilini o'rgatishdagi o'quv materiallarini takomillashtirish masalalari

Akbarova Umidaxon Muxtor qizi

O'zbekiston Davlat Jahon tillari universiteti

Media va kommunikatsiya fakulteti

Madaniyatlararo kommunikatsiyalarning

lingvistik ta'minoti kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Oliy ta'lim muassasalarining nofilologik yo'nalishlari talabalariga ingliz tilini o'rgatishdagi o'quv materiallarini takomillashtirish, ingliz tilini o'qitish samaradorligini oshirish masalasi ko'rib chiqilgan. Shuningdek, unda dars jarayonida ingliz tilida innovatsion o'qitish usullari va yo'llari bayon etilgan.

Kalit so'zlar: kommunikativ, innovatsion o'qitish, jarayon, ko'nikmalarni shakllantirish, motivatsiya, ta'lim texnologiyalari.

Mamlakatimizda mustaqillikning dastlabki davridan boshlab chet tillarni o'qitishni yo'lga qo'yish, ilg'or tajribalarga asoslangan malakali mutaxassislarni tayyorlash, ta'lim muassasalarida ingliz tilini o'qitish sifatini oshirishga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. Ta'lim tizimida olib borilgan islohotlar natijasida uzluksiz ta'limda chet tillarni samarali o'qitish tizimi joriy etildi. Amalga oshirilgan ishlar bilan bir qatorda bugungi kunda ingliz tilini samarali va tizimli o'qitish sifatini oshirish zarurati mavjud. Hatto Bolonya konvensiyasi doirasida ham xalqaro ta'limiy dasturlar qamrovining jadallik bilan ortib



borishi zamonaviy sharoitda talabadan ingliz tilini nafaqat kasbiy nuqtai nazardan, balki muloqotning akademik sohasi sifatida foydalanish ko'nikmasiga ega bo'lishni talab etadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012yil 10dekabrdagi «Chet tillarni o'rganish tizimni yanada takomillashtirish chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-1875-son qaroriga muvofiq oliy ta'lim muassasalari nofilologik ta'lim yo'nalishlarida ingliz tili fanini o'qitish, talabalarning o'z mutaxassisliklarida til bilish ko'nikmalarini mustahkamlash, ta'lim berish sifatini oshirishga yanada jiddiyroq e'tibor berila boshlandi. Talabalarning oliy ta'lim muassasasida ta'lim olish davrida zamonaviy o'quv-uslubiy materiallar bilan ta'minlash hamda ilg'or xorijiy texnologiyalarni qo'llagan holda o'quv mashg'ulotlarini olib borishni yanada takomillashtirilishi taqozo etiladi.

Tilning hozirgi jamiyatdagi o'rnini aniqlash, sabablarini tushuntirish maxsus lug'at deb ataladigan so'zlar sonining tez o'sishi, maxsus maqsadlar uchun tillar nazariyasini yaratgan, LSP ning tilning tuzilishidagi o'rne va rolini aniqlash - bu muammolar tilshunoslar va boshqa tadqiqotchilarni jalb qilishda davom etmoqda. Til kabi hodisaning ko'p qirrali va murakkabligi bilan bog'liqlik, ya'ni bugungi kunda butunlay hal qilinmagan holda qolib, mohiyatini qoldirib va maxsus maqsadlar uchun til chegaralari noaniq va noaniqdir.

XXI asrda globallashuv va integratsiya jarayonlari inson faoliyatining barcha jabhalariga ta'sir ko'rsatib, kasbiy yo'naltirilgan muloqotga bo'lgan ehtiyoj katta ahamiyatga ega bo'lgan yangi davrni boshlab berdi. Zamonaviy, doimo o'zgarib borayotgan voqelik nafaqat kasbiy mahorat va ko'nikmalarga ega bo'lishi, balki til aloqasi sohasida yuqori malakali mutaxassislar bo'lishi kerak bo'lgan mutaxassislarga yuqori talablarni qo'yadi. Til asosiy muloqot vositasi sifatida jamiyatda sodir bo'layotgan o'zgarishlarni aks ettiruvchi o'ziga xos oyna vazifasini bajaradi.

Kompyuter texnikasining rivojlanishi bilan korpus lingvistikasi keng tarqaldi. O'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'quv dasturlarini tayyorlashda matn korpusini



tahlil qilish turli janrdagi matnlarning tuzilishi va lingvistik xususiyatlari to'g'risida ishonchli statistik ma'lumotlarni, juda ko'p real misollarni, turli bilim sohalarini o'rganishni birlashtirishga imkon beradi. Zamonaviy oliy ta'lim muassasalari dasturlari uchun dolzarb bo'lgan multidisipliner yondashuv doirasida yagona butunlik mavjud bo'lmasa-da, maxsus maqsadlarda ingliz tilini o'qitishning yaxlit maqsadi va jarayoni atrofida birlashtira oladi.

Nofilologikoliy ta'lim muassasalarida ingliz tilini o'qitish sifatini takomillashtirish quyidagi omillar bilan bevosita bog'liqdir:

- 1) ingliz tilini biladigan yuqori malakali yangi avlod mutaxassislariga ehtiyojning oshib borishi;
- 2) oliy ta'lim muassasasiga qabul qilingan birinchi kurs talabalarining ingliz tili bo'yicha savodxonligi pastligi;
- 3) talabalarning o'zga tilga xos kommunikativ kompetensiyalarni turli darajada o'zlashtirganligi;
- 4) o'zga tilga xos kommunikativ kompetensiyalarni o'zlashtirishda talabalarning o'quv-metodik individualligini ta'minlashga yo'naltirilgan o'quv adabiyotlarining yetarli emasligi va h.k.

Nofilologik oliy ta'lim muassasalarida ingliz tilini o'qitishning umum qabul qilingan yo'nalishlari sifatida kontekstli va kasbiy yo'naltirilgan ta'lim aks etadi. Talabalarning bo'lajak mutaxassislik bilan bog'liqlikda lingvistik tayyorgarligini shakllantirishda kasbiy yo'naltirilgan ta'limning tayanch konsepti sifatida kontekst muhim ahamiyat kasb etadi. An'anaviy ta'limdagi kabi kontekstli o'qitishda ham o'quv materialini o'zlashtirish axborotlardan iborat belgili tizimlar sifatida matn ko'rinishida taqdim etiladi. Biroq o'quv axborotlarini o'zlashtirishga doir topshiriqlar, muammoli vaziyatlar bo'lajak kasbiyfaoliyat bilan aloqadorlikda tizimlashtiriladi. Bu esa o'rganish jarayonining shaxsiy anglanishini ta'minlaydi, o'quv-bilish jarayonidan mehnat faoliyatiga maqsadli yo'naltirish imkoniyatini



yaratadi. Ingliz tilini o'qitishda kontekstli va kasbiy yo'naltirilgan ta'lim o'z konsepsiyasiga ko'ra bir-biriga yaqin, ya'ni ikkalasi ham bo'lajak kasbiy faoliyatning o'ziga xosliklarini hisobga olgan holda talabalarda o'zga tilga xos kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirish masalasini asosiy maqsad sifatida qaraydi.

Bugungi kunda talabalarning shaxsiy natijalari bilan bir qatorda mavzu va metasubjekt natijalariga erishish vositalari ta'lim texnologiyalari hisoblanadi. Chet tilini o'qitish natijalarini ta'minlash bo'yicha o'qituvchining ish tizimi quyidagi texnologiyalarni amalga oshirishni o'z ichiga olishi shart: kommunikativ ta'lim texnologiyasi, matnning kommunikativ ma'nosini anglash texnologiyasi, o'yin texnologiyalari, hamkorlikda o'rganish texnologiyalari, loyiha texnologiyalari va boshqalar. Ta'limda qo'llaniladigan yangi axborot texnologiyalari shu tarzda yaratilganki, ular yordamida odatdagi o'quv ish turlarini (ma'ruzalar va amaliy mashg'ulotlar, konsultatsiyalar, test sinovlari va hokazo) shunchaki yuqori texnik darajada amalga oshirish mumkin. Bunday haqiqatlarga duch kelgan talabalar, o'rganilayotgan chet tili, xususan, ingliz tili nafaqat aloqa vositasi, balki bilish, o'zini rivojlantirish, o'z qirralari va qiziqish doiralarini kengaytirish, shaxsiy ehtiyojlarini qondirish vositasi rolini ham bajarishini tushunadilar.

Biroq so'nggi yillarda chet tillarini o'qitishning eng ommalashgan metodlari qatorida statistiklar reytingi va hisob-kitoblarida birinchi qatorni egallagan kommunikativ metod mavjud. Ushbu metod Amerika va Yevropada o'zini ko'rsatdi. Dunyoni zabt etishni davom ettirgan holda, respublikamizning yetakchi til universitetlarida qo'llanilib, kommunikativ metodologiya bizga keldi. Metodika chet tillarini o'qitishning ikkita asosiy usulini birlashtirishga asoslangan: an'anaviy va zamonaviy. Nomidan ko'rinib turibdiki, muloqot aloqada muhim rol o'ynaydi. Ushbu texnikaning asosiy maqsadi til to'sig'ini yengib o'tishdir. Eng asosiysi, insonni chet tilidan qo'rqishi, chet tilida gapirish qo'rquvidan qutqarish va shu bilan birga boshqa til qobiliyatlarini rivojlantiradi, xususan, gapirish va yozish, o'qish, tinglash va hokazo.



Shuni ta'kidlash kerakki, grammatika chet tilida gaplashish, muloqot qilish jarayonida o'rganiladi. Bu prinsipda birinchi navbatda talabalar til formulalarini, iboralarni yodlab oladilar va yodlay oladilar hamda shundan keyingina yodlangan iboralarda topilgan grammatik xatolarni tahlil qiladilar. Ismning o'zi aloqa amaliyoti kommunikativ metodikada alohida o'rin tutishi haqida gapiradi.

Kommunikativ texnika chet tilida so'zlashish ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga qaratilgan. Shuni ham ta'kidlash joizki, metodikani qo'llash bevosita dars tuzilishiga ta'sir qiladi. Auditoriyada ko'pincha o'yin vaziyatlaridan foydalanish, guruh ishlarini olib borish, xatolarni topish va taqqoslash qobiliyatlari uchun topshiriqlar ishlab chiqish zarur. Odatda, bunday tadbirlar nafaqat xotirani faol ishlashga, balki analitik va xayoliy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga imkon beruvchi mantiqiy fikrlashga ham majbur qiladi hamda fikrlarni ifodalashga undaydi.

Bugungi kunda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi ingliz tilini o'rganishda eng so'nggi interaktiv manbalarni, jumladan so'nggi avlod kompyuterlari, Internet, television dasturlar, gazeta va jurnallarni yaratmoqda. Yuqorida aytilganlarning barchasini amalda qo'llash juda muhimdir. Bu talabalarning tarjima qilinadigan til tarixi, madaniyati, urf-odatlarini mamlakatiga bo'lgan qiziqishini uyg'otishga yordam beradi va kelajakda zarur bo'lgan ko'nikmalarni shakllantirishga ko'maklashadi.

Oliy ta'lim muassasalarining nofilologik yo'nalishlari talabalariga ingliz tilini o'rgatishdagi o'quv materiallarini takomillashtirishda kommunikativ tilni o'qitish (CLT), tilni o'rganishning ham vositasi, ham yakuniy maqsadi sifatida muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Bir qator tanqidlarga qaramay, kommunikativ tilni o'qitish xususan, Yaponiya, Tayvan, va Yevropada mashhur bo'lishda davom etmoqda. Hindistonda CBSE (O'rta ta'limning markaziy kengashi) ham o'zining filiallarida ushbu yondashuvni qo'llagan.



So‘nggi yillarda, CLT da vazifaga asoslangan til o‘rganish yondashuvi keng tarqaldi. Tarafdorlarning fikricha, CLT – nutq, yozish, tinglash va o‘qish ko‘nikmalarini rivojlantirish va takomillashtirishda muhim ahamiyatga ega va bu esa o‘quvchilarning o‘zaro muloqot qilmasdan faqatgina o‘qituvchini passiv tinglashga to‘sqinlik qiladi. Dogme xuddi shunday kommunikativ yondashuv bo‘lib, u nashr etilgan darsliklarsiz o‘qitishni rag‘batlantiradi va shu bilan birga o‘quvchilar va o‘qituvchi o‘rtasidagi suhbat aloqasiga e’tibor beradi.

Aralashtirilgan ta’lim multimedia elementlari (kompyuter yordamida til o‘rganish deb ham ataladi) birikmasi bo‘lib, virtual o‘quv muhiti (VLE) ga sinfda o‘qitish, o‘qituvchi va tengdoshlar yordamida erishiladi. Aralashtirilgan ta’lim texnologiyasidan foydalanib, o‘quvchilarga video va boshqa multimedia turlari orqali, o‘qituvchi ishtirokisiz ham katta hajmdagi tushunarli ma’lumotlarni taqdim eta oladi.

Texnologiyadagi yutuqlar TEFL malakasini onlayn tarzda olish imkonini ham yaratib beradi. Talabalar Britaniya Kengashi yoki Cambridge TESOL kabi tashkilotlar tomonidan akkreditatsiya qilingan onlayn darslarga yozilishlari mumkin. TEFL uchun yagona umumiy akkreditatsiya organi mavjud emas, ammo xususiy notijorat kompaniyalari akkreditatsiya filiallarini yaratishlari va mijozlarni aldash uchun foydalanishlari ham bugungi kunda ma’lum.

O‘quv materiallari talabalarni sinovdan o‘tkaziladigan modullarga bo‘lingan. Qo‘llab-quvvatlash, ya’ni talabalarga yordam berish repetitorlar tomonidan amalga oshiriladi va repetitorlarga elektron pochta orqali murojaat qilish mumkin. Oxirgi modulni muvaffaqiyatli tugatgandan so‘ng, talabaga raqamli shaklda keladigan yoki talabaning manziliga jo‘natilishi mumkin bo‘lgan sertifikat beriladi. Bunday sertifikatni olish foydali bo‘lishi mumkin, chunki ko‘plab ish beruvchilar TEFL sertifikatini talab qiladi.



Xulosa qilib aytganda, Oliy ta'lim muassasalarining nofilologik yo'nalishlari talabalariga ingliz tilini o'rgatishdagi o'quv materiallarini takomillashtirishda "Arra" o'zaro o'qish texnikasi, "Birgalikda o'qiymiz", "O'ylang, juftlikda ishleng – fikr almashing" birgalikda o'qish texnikasi, "Inster, Toifali, Konseptual, BBB, SWOT-tahlil" jadvallari, "Klaster, Kaskad, Nilufar guli, Piramida, Baliq skleti, Nima uchun?", kabi sxemalardan foydalanish talabalar bilimini oshiradi va mustahkamlaydi. Bunday interfaol metodlaridan foydalanish va zamonaviy ta'lim texnologiyalarini tadbiq etish dars sifatini oshiradi. Interfaol metodlar ta'lim jarayonida qatnashayotgan har bir talabalarning faolligiga asoslanadi. Bu metodlardan foydalanilganda bilim olish talabalar uchun qiziqarli hayotiy faoliyatga aylanadi. Interfaol usul qo'llanganda talabalar o'qitilmaydi, balki ularning o'zlari o'qituvchi bilan birgalikda muayyan yo'nalish va miqdordagi bilimlarni mustaqil o'zlashtiradi. Bu hol talabalarga erkin fikrlash, mustaqil ishlashga rag'bat aydo qiladi. Bu shaklda uyushtirilgan ta'lim jarayoni qatnashchilari o'zaro bimalol tortishadilar, o'quv materialini buyurilganiday emas, balki o'zlari xohlaganday erkin o'zlashtiradilar. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, interfaol metodlarning eng asosiy belgilaridan biri kichik guruhlariga bo'lingan holda ishlashlaridir. O'quv topshirig'ini alohida bir talabalarga emas, balki barcha kichik guruh a'zolariga berilishi talabalarda jamoa tuyg'usini shakllantiradi va ularni tashabbuskorligini oshiradi. Interfaol usullar, ta'limning har qanday ilg'or pedagogik metodlari kabi kamroq vaqt, kuch va resurs sarflab, ko'proq didaktik samaraga erishishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir.

Bugungi kunda Nofilologik oliy ta'lim muassasalarida ingliz tilini o'qitishda kerakli ma'lumotlar hamda o'quv qo'llanmalarining mavjud emasligi bugungi kundagi dolzarb masala hisoblanadi. Nofilologik oliy ta'lim muassasalarida ingliz tili darsini tashkil etishda darsliklar aynan o'z sohasiga oid o'quv qo'llanmalarini yaratilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu orqali talabalarni mavzularni o'zlashrirlashlari oson va qiziqari bo'ladi hamda dasr samarasi ortadi.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Vahobov M.M. Umumiy o'rta ta'lim tizimida o'qitish sifati monitoringi . – T., 2016.
2. Galskova N.D. Sovremennaya metodika obucheniya inostrannym yazыkam /. M.: ARKTI, 2013. 192 s.
3. Saidova F.B. Texnikaviy oliy ta'lim muassasalarida ingliz tilini o'qitish sifatini boshqarishni takomillashtirish: – T., 2017. –49-b.
4. Passov E.I. Soderjanie inoyazychnogo obrazovaniya kak metodicheskaya kategoriya /, 2017. № 6. C. 13-23